



TOSHKENT SHAHAR YANGIHAYOT TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 14-mart

92-14-220-Q/25

Yangihayot tuman hokimligi

Yangihayot tumani hududidagi yer maydonlarini elektron onlayn-auksion savdosiga chiqarish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat mulkini boshqarish sohasi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida” 2024-yil 15-maydagи 282-son qarori ijrosini ta’minlash hamda tuman hududidagi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan bo‘sh yer maydonlarini elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat mulkini boshqarish sohasi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida” 2024-yil 15-maydagи 282-son qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Yangihayot tumani hokimining o‘rnibosari (I.Xushvaqtov), Davlat kadastrlari palatasi Toshkent shahar boshqarmasi Yangihayot tumani filiali (A.Maxkamov):

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta’minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 8-iyundagi PF-6243-son Farmoni talablaridan kelib chiqqan holda ilovaga muvofiq yer maydonlarini ijara huquqi asosida elektron onlayn-auksion savdosiga chiqarilishini ta’minasin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi Toshkent shahar boshqarmasidan ushbu qarorga muvofiq ko‘rsatib o‘tilgan bo‘sh yer uchastkalariga nisbatan Yangihayot tumani hokimligiga belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish so‘ralsin.

4. Ushbu qarorga muvofiq davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan yer uchastkalari tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun elektron onlayn-auksion orqali ijara huquqi asosida realizatsiya qilinishi belgilab qo‘yilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rnbosari I.Xushvaqtov zimmasiga yuklatilsin.

**Yangihayot tumani
hokimi**



X.Inogamov

Yangihayot tumani hokimining
2025-yil 14-martdagi
92-14-220-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**Yangihayot tumani hududidan elektron onlayn-auksion savdosiga
chiqariladigan yer maydoni
RO'YXATI**

T/r	Tuman nomi	Yer uchastkasi manzili	Yer uchastkasining “Yerelektron” AATdagi unikal raqami	Maydoni (gektar)
1.	Yangihayot	“Chortoq” MFY	KA1726292030/3	0,01
2.	Yangihayot	“Toshkent” MFY	KA1726292027/1	0,0844
Jami				0,0944